

MUSTAQIL TA’LIM JARAYONIDA TALABALARNING KOGNITIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH JARAYONINI TASHKIL ETISH

Adashova Guljaxon Muxammadjonovna

NamDU mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mustaqil ta’lim jarayonida talabalarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonini tashkil etish mazmuni, talabalarning bilimga bo’lgan munosabatini tahlil va ijodiy fikrlashni, axborotni izlash va saralash ko’nikmasini, muammolarni hal etish va qaror qabul qilish qobiliyatini, jamoaviy va shaxsiy ta’lim faoliyatida o’zini boshqarishni o’rgatish xaqida bayon etilgan.

Kalit so’zlar: Mustaqil ta’lim, kognitiv kompetensiya, tahlil, ijodiy fikrlash, axborotni izlash va saralash, muammolarni hal etish, jamoaviy va shaxsiy ta’lim.

Hozirgi kunda ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri talabalarda mustaqil fikrlash, bilimlarni mustaqil o’zlashtirish va ularni amaliy hayotda qo’llay olish qobiliyatini shakllantirishdir. Bu esa talabalarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirish bilan bevosita bog’liq. Kognitiv kompetensiyalar — bu insonning ma’lumotni qabul qilish, qayta ishlash, tahlil qilish, tizimlashtirish va samarali qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini o’z ichiga olgan bilim va ko’nikmalar majmuasidir.

Mustaqil ta’lim jarayoni talabalarda o’z bilim faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash imkoniyatlarini rivojlantiradi. Bu jarayonda talabaning shaxsiy faolligi, intellektual mustaqilligi, masalalarni yechishda ijodiy yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, ta’lim jarayonida kognitiv kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishning samarali usul va shakllarini o’rganish hamda ularni amaliyotga joriy etish bugungi kunda o’ta dolzarb masala hisoblanadi.

Globallashuv va axborotlashuv jarayonlari kuchayib borayotgan XXI asrda ta’lim tizimi jamiyatning ilmiy-texnik va ijtimoiy taraqqiyotiga mos holda tezkor o’zgarishlarga yuz tutmoqda. Yangi sharoitlarda raqobatbardosh, innovatsion fikrlaydigan, muammolarni mustaqil hal qila oladigan, uzluksiz o’rganishga qodir mutaxassislarni tayyorlash talab etiladi. Bu jarayonda kognitiv kompetensiyalar — ya’ni bilimni qabul qilish, tahlil qilish, qayta ishlash, sintezlash, baholash va ular asosida oqilona xulosa chiqarish qobiliyatlari — markaziy o’rinni egallaydi.

Ta’limning mazmuniy jihatdan yangilanishi, o’quv-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish orqali talabalarda kognitiv faollikni yuksaltirish maqsad qilinmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, mustaqil ta’lim nafaqat bilimlarni o’zlashtirish usuli, balki talabaning bilish jarayonida shaxsiy faolligini, intellektual mustaqilligini va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning muhim omili sifatida namoyon bo’ladi. Mustaqil ta’lim jarayoni talabalarda o’z bilim faoliyatini rejalashtirish, ma’lumot manbalarini izlash, tanlash, ularni tahlil va qiyosiy o’rganish, xulosa chiqarish hamda bilimni amaliy faoliyatda qo’llashga qodirlikni rivojlantiradi. Shu sababli, ushbu tadqiqotda mustaqil ta’limning pedagogik-metodik asoslari, uni tashkil etishning ilg’or usullari

va vositalari hamda talabalarda kognitiv kompetensiyalar shakllanish mexanizmini ilmiy asosda tahlil qilish dolzarb ahamiyatga egadir [1].

Kognitiv kompetensiyalar — bu shaxsning bilish faoliyatiga oid ko‘nikma va qobiliyatlar majmuasidir. Ularga ma’lumotni idrok etish, eslab qolish, tahlil qilish, sintez qilish, tanqidiy baholash, muammoni hal etish, qaror qabul qilish, ijodiy fikr yuritish kabi jarayonlar kiradi. Bu kompetensiyalar insonning murakkab ma’lumotlarni qayta ishlash qobiliyatini shakllantiradi va uning akademik hamda kasbiy samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi. Ta’lim jarayonida kognitiv kompetensiyalar talabalarda bilimlarni faqat eslatib qolish emas, balki ularni mazmunan anglash, tahlil qilish va yangi bilimlarni yaratish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bois, zamonaviy ta’lim strategiyalari kognitiv kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilmoqda [2].

Mustaqil ta’lim — bu talabaning shaxsiy faolligi, o‘z bilim olish jarayonini mustaqil tashkil etishi, bilim manbalarini izlab topishi va ularni tahlil qilishiga asoslangan ta’lim shaklidir. Ushbu jarayonda talabalar o‘quv-metodik resurslar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va muloqot vositalaridan mustaqil foydalanadilar. Mustaqil ta’limning ahamiyati shundaki, u [3]:

- talabalarining bilimga bo‘lgan munosabatini o‘zgartiradi;
- tahlil va ijodiy fikrlashni rag‘batlantiradi;
- axborotni izlash va saralash ko‘nikmasini rivojlantiradi;
- muammolarni hal etish va qaror qabul qilish qobiliyatini oshiradi;
- jamoaviy va shaxsiy ta’lim faoliyatida o‘zini boshqarishni o‘rgatadi.

Mustaqil ta’lim talabaning bilish jarayonida shaxsiy faolligini ta’minlaydigan, uning mustaqil fikr yuritishi, tahlil qilishi va xulosa chiqarishiga imkon beradigan muhitni yaratadi. Bu jarayonda talabalarining [4]:

- axborotni izlash va saralash ko‘nikmalari;
- tanqidiy va tahliliy fikrlash qobiliyati;
- intellektual mustaqillik;
- ijodiy yondashuv;
- o‘z-o‘zini baholash va o‘zlashtirish faoliyatini nazorat qilish qobiliyatlari shakllanadi.

Bunday faoliyatga, ayniqsa, keys-stadi, veb-kvest, loyiha usuli, portfolio, intellektual treninglar, tafakkur xaritalari kabi ilg‘or o‘qitish texnologiyalari xizmat qiladi.

Talabalarda kognitiv kompetensiyalar rivojlanishi uchun quyidagi sharoitlarni yaratish zarur [5]:

maqsadga yo‘naltirilgan mustaqil faoliyatni tashkil etish: topshiriqlar aniq maqsad va natijaga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

metodik ta’minlanganlik: talabalarga yo‘l-yo‘riq, tavsiyalar, referatlar, testlar va boshqa metodik vositalar taqdim etilishi kerak.

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish: elektron resurslar, video-darslar, interaktiv platformalarni jalb etish.

refleksiya va o‘z-o‘zini baholash imkoniyatlari: talabalar o‘z natijalarini baholay oladigan faoliyat turlari (jurnal, blog, test, mulohaza yozish va h.k.)ni joriy etish.

fikrlashni rag‘batlantiradigan muhit: ochiq muloqot, tanqidiy savollar, intellektual bahs va fikr almashinuvi uchun qulayliklar yaratish.

Kognitiv kompetensiyalar shaxsning bilim olish, qayta ishlash, tushunish, tahlil qilish, sintez qilish, baholash va yangi bilim yaratishga oid aqliy (intellektual) qobiliyatlari va ko‘nikmalari majmuasidir. Bu kompetensiyalar insonning faol bilish jarayonlarini (xotira, diqqat, tafakkur, qiyoslash, tahlil va boshqalar) o‘z ichiga oladi va tafakkur faolligini yuksaltirishga xizmat qiladi. Ular ta’lim jarayonida nafaqat bilimni egallash, balki bilim bilan faol ishlash — ya’ni bilimdan foydalanish, qayta tahlil qilish va ijodiy yondashish qobiliyatini ham qamrab oladi. Ta’lim jarayonida asosan quyidagi kognitiv kompetensiyalar muhim hisoblanadi [6]:

axborotni izlash va saralash qobiliyati
muammoli vaziyatda tahlil qilish va fanlararo bog‘liqliklar qurish
tanqidiy fikrlash (bilimga tanqidiy yondashish, xolis baholash)
ijodiy tafakkur (yaratiuvchanlik, yangilik kiritish qobiliyati)
muammo yechish va qaror qabul qilish ko‘nikmalari
metatanqidiy tafakkur (o‘z tafakkur jarayonini kuzatish va baholash qobiliyati)

Zamonaviy ta’lim maqsadi talabalarni tayyor bilimlarni o‘zlashtirishga emas, balki ularni mustaqil tahlil qilish, mulohaza yuritish, bilimlarni amaliyotda tatbiq etish va yangilik yaratishga qodir shaxs sifatida shakllantirishdir. Bu esa kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirmasdan amalga oshmaydi. Kognitiv kompetensiyalar [7]:

ta’lim jarayonini faol va interaktiv shaklda tashkil etish imkonini beradi;
talabalarda bilishga intilish va intellektual mustaqillikni shakllantiradi;
yangi ma’lumotni egallash bilan birga, uning mazmunini tahlil etish, tanqidiy baholash va qayta yaratish qobiliyatini rivojlantiradi;

XXI asrning talablari — “o‘qish, fikrlash, yaratish, muloqot qilish va hamkorlik qilish” salohiyatini yuksaltiradi.

Kognitiv kompetensiyalar bilimli va tafakkur qiluvchi shaxsni shakllantirishning poydevoridir. Ular orqali talabalar o‘zlashtirilgan ma’lumotlarni chuqur anglaydi, tanqidiy tahlil etadi, yangi g‘oyalar yaratadi va amaliy hayotda to‘g‘ri qarorlar qabul qiladi. Shuning uchun ham ularni mustaqil ta’lim orqali shakllantirish va rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi [8].

Mustaqil ta’lim talabaning o‘ziga xos ta’limiy faoliyati bo‘lib, u ta’lim jarayonida bilimlarni mustaqil ravishda izlash, o‘zlashtirish, tahlil qilish va amaliy faoliyatda qo‘llash qobiliyatini rivojlantiradi. Mustaqil ta’limda talabaning faolligi, tanqidiy va ijodiy fikrlashi, axborot manbalaridan unumli foydalanishi, o‘quv jarayonini o‘z nazorati ostida olib borishi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Mustaqil ta’lim jarayoni oddiy bilimni yodlashdan farqli ravishda, shaxsda bilish jarayoniga faol yondashuv, tahlil va baholash qobiliyatini shakllantiradi. Unda talabaning shaxsiy intellektual ehtiyojlari, qiziqishlari va maqsadlari markaziy o‘rinni egallaydi. Mustaqil ta’lim jarayoni quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi [44]:

subyektli yondashuv: talaba ta’lim jarayonida passiv emas, balki mustaqil faoliyat yurituvchi subyekt sifatida qatnashadi;

faol bilish jarayoni: axborotni izlash, tahlil qilish, qiyoslash, sintez qilish va baholash kabi tafakkur jarayonlarini o‘z ichiga oladi;

mas’uliyat va o‘zini boshqarish: talaba o‘z ta’lim faoliyati uchun javobgarlik hissini his etadi va uni rejalashtirish, nazorat qilishga o‘rganadi;

axborot manbalariga tayangan holda ishlash: kutubxona, internet, ilmiy maqolalar, darsliklar va boshqa manbalardan mustaqil foydalanish talab etiladi;

o‘zlashtirish darajasini baholash: refleksiya va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalari shakllanadi.

Xulosa o‘nida talabalarning auditoriyadan tashqari mustaqil ta’limi jarayonida ijodiy faollashuvni ta’minlovchi omillar tizimli ravishda tahlil qilinib, ularning o‘zaro bog‘liqligi va samaradorlik darajasi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baxodirova G.K. Talabalarning bilish faoliyatini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar // Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2019. - 56 b.
2. Ильясов И.И. Развивающее обучение в становлении учебной самостоятельности // Вопросы психологии. 2013. № 1. С. 155-158.
3. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. T.: Iqtisodiyot, 2011. – 208 b.
4. Muslimov N.A., Raximov Z.T., Xo‘jayev A.A., Yusupov B.E. Ta’lim texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent “Voriz” nashriyoti, 2020. 192 b.
5. Komilov A.H. Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodlari. Toshkent: Universitet nashriyoti. 2021. 45-68-b.
6. Yuldasheva M.E. Innovatsion ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023. - 47 b.
7. Zufarova M.E. Umumiy psixologiya: o‘quv qo‘llanma; –Toshkent.: Ўзбекистон faylasuflari миллий jamiyati nashriyoti, 2010. – 304 b.
8. Гузанов Б.Н., Морозова Н.В. Организация самостоятельной работы студентов вуза в условиях реализации многоуровневой модели обучения: монография / Екатеринбург: Изд-во Рос. гос. проф.- пед. ун-та, 2014. 158 с